



## OCHIQ MAYDONLARGA O'RNATILADIGAN SUN'IY YANGI YIL BAYRAMI ARCHALARINING TEXNIK MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISH

*Mustaqimov Sherali Shuhrat o'g'li*

*(“LUOK” MChJ Buxoro viloyatidagi OYXTTE bo‘limi P va NB katta inspektori  
leytenant)*

**Annotatsiya:** *Maqola matnida ochiq maydonlarda barpo etiladigan yangi yil bayrami archalarini o‘rnatish va texnik mustahkamligini oshirish, texnik mustahkamlikka e‘tibor berilmasdan sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar haqida fikrlar yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Texnik mustahkamlik, ustunli archa, sinchli archa, qo‘shimcha yuk, qavat bog‘lamlar, QMQ 2.01.07, QMQ 2.03.05, GOST 23118-2012, QMQ 2.03.11.*

O‘zbekiston Respublikasiga yangi yil shukhi dekabr oyining ilk kunlaridan boshlanadi. Yangi yil bayrami Shahar va tuman markazlarida qad ko‘taradigan yangi yil archalari bilan yanada jozibali va qiziqarli bo‘ladi. Yangi yil archalarini ko‘rkam va xavfsiz bo‘lishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va qoidalar asosida barpo etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 11.11.2021-yildagi 02-02/2160-son, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 12.11.2021-yildagi 04-12-15-4984-son, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 12.11.2021-yildagi 05-06/12845-son, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi Davlat qo‘mitasining 12.11.2021-yildagi 01/22-3390-son “ochiq maydonlarda barpo etiladigan yangi yil bayrami archalarini o‘rnatish, montaj qilish va foydalanish joylarining texnik mustahkamligi va yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomasi asosida yangi yil archalari quriladi va texnik mustahkamligi amalga



oshiriladi. Texnik mustahkamlik amalga oshirilishi uchun yuqoridagi yo‘riqnomaga asosan ishlar amalga oshirilishi kerak va ular quyidagilar:

Barpo etilayotgan sun‘iy yangi yil bayrami archalarining turiga ko‘ra ustunli yoki sinchli konstruksiyalardan foydalanish kerak.

Ustunli turdagi sun‘iy yangi yil bayrami archalari 22 m dan ortiq bo‘lmagan balandlikda barpo etilishi kerak. Bunday archalarni qurilmalari odatda, asos bo‘lgan tag qismi yulduz shakilda yasalgan uzun va qisqa metall quvurlardan, qavat bog‘lamlardan va ma‘lum uzunlikdagi ignabargli shoxlardan iborat.

*Eslatma. Ustunli turdagi sun‘iy yangi yil bayrami archalari kuchli shamol esishiga chidamligi past hisoblanadi.*

Ustunli turdagi sun‘iy yangi yil bayrami archalarning qurilmalarida, tross kengaytmalari ko‘zda tutilishi va ular archa tagida o‘rnatilgan qo‘shimcha yuklar bilan sinch tokchalarini bog‘lash kerak.

Sinch turidagi sun‘iy yangi yil bayrami archalari 30 m dan ortiq bo‘lmagan balandlikda barpo etilishi kerak. Bunday archaning qurilmasi, odatda, markaziy ustun, tirgak, shuningdek, diagonallar, raskoslar, ulagichlar, qavatlararo gorizontall joylashgan ulanish halqalarni o‘z ichiga olgan konus shaklidagi sinchlardan iborat bo‘lishi kerak.

*Eslatma. Sinch turidagi sun‘iy yangi yil bayrami archalari kuchli shamolga bardosh beradigan qurilma hisoblanadi.*

Ustun va sinch turdagi sun‘iy yangi yil bayrami archalarning ko‘taruvchi metall qurilmalarini loyihalari QMQ 2.01.07 “Yuklar va ta’sirlar” (1-sonli o‘zgartirish), QMQ 2.03.05 “Po‘lat konstruksiyalar. Loyihalash me‘yorlari”, GOST 23118-2012 “Po‘lat qurilish konstruksiyalari”, QMQ 2.03.11 “Qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish” talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak.

Yangi yil bayrami archalari, oldindan tayyorlangan, o‘pirilib tushmaydigan, sirti talab darajasida tekis gorizontall va qattiq (beton, asfalt va hokazo) qoplamalarda o‘rnatilishi kerak.



Sun'iy yangi yil bayrami archasini barpo etish ishlari maxsus tashkilot (brigada) tomonidan ob'ekt rahbarining bevosita nazorati ostida amalga oshirilishi kerak.

Agar yangi yil bayrami archasi o'rnatilgan joyda shamol esishi ehtimoli yuqori darajada bo'lsa, ularning barqarorligi uchun tagiga shartli ravishda yuk sifatida beton bloklar qo'llanilishi kerak. Archa tagida o'rnatilgan qo'shimcha yuklar bilan archani sinch tokchalarini bog'lash uchun ishlatiladigan mahkamlovchi tross uzatmalari hisob-kitob asosida montaj qilinishi zarur. Texnik mustahkamlikka to'liq amal qilinmagan yoki yuqori tezlikdagi shamol esishi oqibatida bir nacha bor yangi yil archalarining qulash holatlari kuzatilgan.

2016-yil 29-dekabr jizzax viloyati markaziy xiyobonda o'rnatilgan balandligi 22 metrni tashkil etuvchi yangi yil archasi qulagan.

2019-yil 20 dekabr dan 21 dekabr ga o'tar kechasi esgan kuchli shamol tufayli Samarqand shahrida o'rnatilgan yangi yil archasi qulagan.

2020-yil 26-dekabr kuni Termiz shahrida Yangi yil uchun bezatilgan archa 20 m/s tezlikda qar aralash kuchli shamol tufayli qulagan.

2023-yil 24-dekabr Ozarbayjonning Ganja shahrida kuchli shamol yangi yil archasi qulagan.

2023-yil 25-dekabr kuni kechki payt kuchli shamol tufayli Buxoro viloyatining Qorako'l tumani markazida bezatilgan yangi yil archasi qulagan.

2023-yil 31-dekabr kuni qo'shni Qozog'iston Respublikasida yangi yil archasi qulagan.

2024-yil 24-dekabr Ozarbayjonning Ganja shahrida kuchli shamol yangi yil archasi qulagan.

Yuqoridagi holatlar texnik mustahkamlikda nuqsonlar borligi yoki trosslarning soni kamligi sababli yuzaga kelgan. Bunday holatlarning oldini olinishi va archaning yiqilib ketish holati kuzatilmaslighi bir nechta takliflar taqdim etilib shu takliflar Shahar va tuman markazidagi archalarda sinab ko'rildi va ijobiy natijalarga erishildi. Texnik mustahkamlikni oshirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:



- Archaning turidan kelib chiqib asosiy tayanch qismadan yerga qoziqlar orqali mahkamlash.

- Qoziqlarning uzunligi 2 metr bo'lishi tavsiya qiladi (qoziqlar archaning yerga mahkamlanishini oshirish bilan birga elektr tokidan yerlantirish orqali himoya qiladi).

- Sinchli va ustunli archalarning uzunligidan kelib chiqib eng baland qismidan  $\frac{1}{4}$  mafofa pastda joylashgan mustahkam detalga troslar bog'lanib (6 yoki 8 ta tross) archadan taxminan 10 metr uzoqlikda yerga qoqib ular bloklar bilan bog'lash.

- Trosslar fuqarolarga zarar yetkazmasligi hamda bayramona ko'rinishga salbiy ta'sir qilmasligi uchun ular past kuchlanishli girlyandalar bilan o'ralib bezatish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbeliston Respublikasining 2009-yil 30-sentabrdagi "Yong'in xavfsizligi to'g'risidagi" 226-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyul kunidagi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 205-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabr kunidagi "Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 649-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi 11.11.2021-yildagi 02-02/2160-son, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 12.11.2021-yildagi 04-12-15-4984-son, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi 12.11.2021-yildagi 05-06/12845-son, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi 12.11.2021-yildagi 01/22-3390-son "ochiq maydonlarda barpo etiladigan yangi yil bayrami archalarini o'rnatish, montaj qilish va foydalanish joylarining texnik mustahkamligi va yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma"si.

5. Sh.Sh.Mustaqimov Pedagog Respublika ilmiy jurnali "Yig'ma temir konstruksiyali yangi yil archasida sodir bo'ladigan yong'inlarni o'chirishda o'z o'zini o'chirish tizimi" maqolasi 1174-1177 betlar.